

KORREKSION–PEDAGOGIK ISHLARNI TASHKIL ETISHNING
TASHKILIY, HUQUQIY, USLUBIY VA AMALIY YORDAM KO‘RSATISH
USULLARI.

Jalilova Shahrizoda Jo‘rabek qizi

O‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti 612-23-guruh talabasi.

Annotatsiya: Korreksion-pedagogik ishlar-bu nogironligi bo‘lgan, maxsus ehtiyojmand bolalar uchun yoki nuqsoni bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan ta’lim jarayoni. Ushbu ta’lim jarayonining asosiy maqsadi shundan iboratki, nuqsoni bo‘lgan bolalarni, rivojlanishdan orqada qolgan bolalarning nuqsonlarini bartaraf etish, qolaversa, ta’lim jarayoniga ularni jalb etish.

Kalit so‘zlar: Korreksion pedagogika fanining maqsad va vazifalari, individual yondashuv, "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiya, bepul tibbiy yordam, logoped mashg‘ulotlari.

Abstract: Correctional pedagogical work is an educational process designed for children with disabilities, special needs or children with disabilities. The main goal of this educational process is to eliminate the defects of children with disabilities, children who are lagging behind in development, and also to involve them in the educational process.

Keywords: Goals and objectives of correctional pedagogy, individual approach, Convention on the Rights of Persons with Disabilities, free medical care, speech therapy classes.

KIRISH

Korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correction"-tuzatish) korreksion pedagogika pedagogik uslub va tadbirlar yordamida anomal

bolalarga ta'lim berish va ularning kamchiliklarini tuzatish, aqliy rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Anomal bola qanday bo'ladi? Anomal so'zining manosi? Ruhiy va jismoniy kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar anomal bolalar deb yuritiladi. "Anomal" so'zi yunoncha anomalos so'zidan olingan bo'lib "odatdan tashqari", "noraso" degan ma'nolarni bildiradi. Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi—anomal bolalarning ta'lim olishiga zarur shart-sharoitlarni o'rganib chiqish va ularning kamchiliklarini iloji boricha tuzatish, bartaraf etish yoki sezilmaydigan holga keltirish usullarini tarbiyachilarga va o'qituvchilarga yoritib berishdan iborat. Korreksion pedagogikaning vazifasi anomaliyaning kelib chiqish sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganib chiqqan holda integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil qilish va ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish hisoblanadi. Korreksion pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi. Korreksion pedagogika boshqa fanlarga nisbatan yangi fan sanaladi. Bu fan asosan 19-asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. Bu fanning rivojlanishida buyuk psixolog professor L.S.Vigotskiyning xizmatlari katta hisoblanadi. 1925-yil Moskva shahrida Eksperimental defektalogiya instituti tashkil etildi. Bu institutni L.S.Vigotskiy boshqargan. L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib chiqqan va nuqsonlarning murakkab tuzilishi haqida ham ta'limot ishlab chiqqan. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'lim olib borish kerakligini, korreksiya va kompensatsiya usullarini o'rganib chiqdi va bularni amalga oshirishning usullarini yoritib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolalarning "salbiy","ijobiy" tomonlarini o'rganib chiqib ta'lim- tarbiyani bolaning potensial qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil qilish zarurligini uqtirdi. U defektalogiya sohasida kata nazariy meros qoldirgan va shu bilan birga defektalogiya fanining asoschisi hisoblanadi. O'zbekistonda korreksion pedagogikaning rivojlanishi 1967-yildan boshlab keskin o'sib bordi. Sabab shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat

pedagogika institutining Pedagogika va Psixologiya fakultetining qoshida oligafrenopedagogika bo'limi yaratildi. Bu bo'limga 1976-yil surdopedagogika bo'limi ham qo'shildi. Mustaqil defektologiya bo'limida 1984-yildan boshlab bir necha bo'limlarda ta'lim berila boshlandi.

ASOSIY QISM.

Korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish jarayonida tashkiliy, huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish usullari muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu yo'nalishlarda asosiy jihatlar keltirilgan:

Tashkiliy jihatlar:

Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalari: Bu soha rivojlanishida turli nuqsonlarga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Asosiy maqsad – mavjud kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirish orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashdir.

Mutaxassislar tarkibi: Korreksion-pedagogik yordam malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, defektologlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishni ta'minlaydi.

Huquqiy jihatlar:

Normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasida korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish bo'yicha turli qonunlar va qarorlar mavjud. Masalan, 2021-yil 11-avgustdagi 510-sonli qarorda reabilitatsiya markazlariga ega bo'lgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida defektologlarning vazifalari belgilangan.

Uslubiy jihatlar:

Ta'lim metodlari: Korreksion pedagogikada o'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida darslarni tashkil etishda zamonaviy (noan'anaviy) shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mashg'ulotlarning shakllari: Umum rivojlantiruvchi va korreksion dasturlar bo'yicha o'tkaziladigan yakka tartibdagi, kichik guruhdagi yoki frontal mashg'ulotlar korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari hisoblanadi.

Amaliy yordam ko'rsatish usullari:

Erta tashxis va abilitatsiya: Ilk yoshdagi bolalarga yordam tizimini rivojlantirishda erta tashxis qo'yish va abilitatsiya muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan.

Pedagogik diagnostika: O'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va ularga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali korreksion ishlarning samaradorligini oshirish mumkin.

Inklyuziv ta'lim: Sog'lom va sog'ligida nuqsoni bor bolalarning birgalikda o'qitilishi orqali ularning ijtimoiy moslashuvi va rivojlanishiga yordam beradi.

Shahrizoda Jalilova:

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan xalqaro hujjat bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Konvensiya 2008-yil 3-maydan kuchga kirgan.

Asosiy maqsadlari:

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va ilgari surish;

Ularning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash;

Nogironlik sababli kamsitishlarning oldini olish;

Nogironlarning ta'lim, tibbiy xizmat, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Asosiy prinsiplari:

1. Kamsitmaslik – Nogiron shaxslar boshqa fuqarolar bilan teng huquqlarga ega.
2. Teng imkoniyatlar – Ularga jamiyatning barcha sohalarida qatnashish uchun zarur sharoit yaratish.
3. Erkin harakatlanish – Jamoat joylari va infratuzilmalarni nogironlar uchun qulay qilish.
4. O'z taqdirini o'zi belgilash – Nogironlar mustaqil hayot kechirish va shaxsiy qarorlar qabul qilish huquqiga ega.
5. Ayollar va bolalar huquqlari – Nogiron ayollar va bolalar alohida himoya va qo'llab-quvvatlashga muhtoj.
6. Ta'lim va mehnat huquqi – Nogironlarga sifatli ta'lim olish va mehnat qilish imkoniyatini ta'minlash.

–Konvensiya–nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan muhim xalqaro hujjat;

–Nogironlarning kamsitilishining oldini olish;

–Ularning teng huquqlarini ta'minlash va yashash sharoitlarini yaxshilash.

O'zbekiston ham ushbu konvensiyaga qo'shilgan bo'lib, bu nogironlar huquqlarini ta'minlash borasidagi milliy siyosatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA.

Korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etish nogironligi yoki maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun tashkiliy, huquqiy, uslubiy va amaliy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

1. Tashkiliy jihatdan – malakali mutaxassislar va maxsus ta'lim muassasalari zarur.
2. Huquqiy jihatdan – O'zbekiston va xalqaro qonunlar nogiron bolalarning huquqlarini himoya qiladi.
3. Uslubiy jihatdan – maxsus o'qitish usullari va individual yondashuvlar qo'llaniladi.
4. Amaliy jihatdan – erta tashxis, rehabilitatsiya va inklyuziv ta'lim orqali bolalarga yordam beriladi.

Umuman olganda, korreksion pedagogika bolalarning rivojlanishi va jamiyatga moslashishi uchun zarur bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi maxsus sharoitlar va qo'llab-quvvatlash tizimiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogik Diagnostika va Korreksiya" Xayrixon Ashiraliyevna Raxmatova.
2. "Maxsus Pedagogika" P.M. Po'matova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova. (2021-yil)
3. "Defektologiya Asoslari"
4. "Pedagogika" M.To'xtaxo'jayeva, S. Nishonova
5. "Pedagogikaning Korreksion- rivojlantiruvchi faoliyati" Yulduz Baratova